

## KATTA ZUBTURUM - PLANTAGO MAJOR O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI

**Mamatkulova Iroda Ergashevna**

*O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali*

*Biotexnologiya yo'nalishi katta o'qituvchi*

**Qosimova Ruxshona Sherzod qizi**

*O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali*

*Biotexnologiya yo'nalishi II-bosqich talabasi*

*E-mail: [ruxshonaqosimova12@gmail.com](mailto:ruxshonaqosimova12@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda *Plantaginaceae* oilasiga mansub bo'lgan *Plantago major* o'simligining morfologik tuzilishi, geografik tarqalishi, kimyoviy tarkibi hamda ishlatilishi haqida qisqacha ta'rif berilgan. Shuningdek, Katta zubturm o'simligining me'da-ichak kasalliklari, yo'g'on ichakning yallig'lanishi, me'da va o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligini davolashda foydalanishligi hamda shunga o'xshash kasalliklarga davo ekanligi haqida to'liq yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** karotin, flavonoid, oshlovchi, saponin, shilliq modda, aukubin glikozidi, plantaglyusid preparati, gastrit enterit, enterokolit.

Insonlar ko'pincha ovqatlanish tartibining buzilishi, oqsillarni kam miqdorda lekin uglevodlarni ko'p miqdorda iste'mol qilishi, shuningdek, bizning hayotimizdan misol qilib oladigan bo'lsak, turli xil tez tayyor bo'ladigan mahsulotlarni, oziq-ovqatlarni iste'mol qilishi tufayli turli xil oshqozon-ichak kasalliklari kelib chiqadi. Bu kasalliklarni tabiiy davolaridan biri bu zubturm o'simligi hisoblanadi. Zubturm *Plantaginaceae* oilasiga mansub bo'lib, kalta va yo'g'on ildizpoyali, poyasiz ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. Yer ustki qismining ildizoldi barglari va 10-50 sm balandlikdagi gul o'qi tashkil qiladi. Barglari uzun, qanotli, bandli, keng tuxumsimon yoki keng ellipssimon tekis qirrali, 3-9 ta yoysimon asosiy tomirli bo'ladi. Guli bitta yoki bir nechta bo'ladi.[1]

**Geografik tarqalishi:** Katta zubturm hamma hududlardagi yo'l yoqalarida, ariq, daryo bo'ylarida, botqoqliklarda, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida va boshqa yerlarda o'sadi. Fors tadqiqotchilar shuni ta'kidlashadiki, *Plantago major* 4000 yil davomida, ayniqsa Yevropa, Amerika va Osiyoda boshqa davlatlarga nisbatan eng ko'p tarqalgan.[3]

**Kimyoviy tarkibi:** Zubturm bargi bilan yer ustki qismi tarkibida 0,1% efir moyi, shilliq moddalar, saponinlar, aukubin glikozidi, S vitamini va K vitamini, 4,5-32,91 mg karotin, flavonoidlar, organik kislotalar, oshlovchi va boshqa biologik faol

moddalar, urug'ida 22% gacha yog', saponinlar, 44% gacha shilliq va boshqa biologik faol moddalar mavjud.[2,5]

**Dorivorlik xususiyatlari:** Zubtutum bargi yo'talga qarshi ishlatiladigan yig'malar-choylar tarkibiga kiradi. Uning bargi bilan Abu Ali ibn Sino o'z vaqtida qiyin bitadigan yaralarni, shishlarni, ko'z yallig'lanishi, jigar, buyrak va boshqa kasalliklarni davolagan hamda qon to'xtatish uchun ham ishlatgan. Jigar va buyrak kasalliklarida hamda qon tupurishda bemorda zubtutum urug'ining qaynatmasini ichirgan[6,7]. Zubtutum bargidan tayyorlangan damlamasi yoki quritilmagan barg shirasi xalq tabobatida nafas yo'llari, ko'z, teri, bezgak, yo'g'on ichak yallig'lanishi va turli yuqumli kasalliklarni hamda kuydirgini davolashda ishlatilgan. Yana shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, zubtutumning bargi o'pka va me'da raki kasalligini davolash uchun hamda nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ham ishlatiladi. Yaralar, chipqon va kesilgan yerlarni davolash uchun yangi uzib olingan bargi ezib bog'lanadi [2,5]. Zubtutum urug'idan tayyorlangan qaynatmasi yoki shakarga aralashtirib qovurilgan urug'i bilan yo'tal, isitma va boshqa kasalliklar davolanadi. Zubtutumning yangi yig'ilgan bargi ezib teng miqdorda shakarga aralashtiriladi va issiq joyda uch hafta saqlanadi. So'ng shu aralashmadan ajralib chiqqan shiradan kuniga 3- 5 choy qoshiqda o'pka va me'da raki kasalligini davolash uchun bemorga ichiriladi[8]. Katta zubtutum o'simligi turli xil burun bo'shlig'i yo'li bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarga ham davo hisoblanadi. Zubtutum bargi balg'am ko'chiruvchi va me'da shirasi kislotaliligini oshiruvchi modda sifatida ham ishlatiladi.[1,4]

**Xulosa:** Inson borki, tur xil kasalliklar inson bilan yonma-yon bo'ladi. Hattoki kasalliklar inson bilan birga ko'paymoqda. Zubtutum o'simligi shunday kasalliklarni oldini olishda juda ham samarali hisoblanadi. Zubtutumning urug'i va bargi juda ham ko'p kasalliklarga jumladan, gripp, yo'tal, isitma, gastrit, enterit, kolit, ko'z yallig'lanishi, jigar va buyrak kasalliklari hamda eng xavfli kasalliklar hisoblangan o'pka va me'da raki kabi kasalliklarga tabiiy davo hisoblanadi. Shu sababli uni ko'paytirish, o'simlikni plantatsiya usuli yordamida yanhi navlarni yaratish davr talabi hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.A.Jo'rayeva- Dorivor o'simliklar atlası – (68-69)[1].
2. E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova- O'rmon dorivor o'simliklari –(130-132)[2].
3. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov- Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya –(205-207)[3].
4. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov “Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan Ridge,

Uzbekistan”.Biodiversitas ISSN: 1412-033X.Volume 24, Number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722.Pages: 1621-1628 DOI:10.13057/biodiv/d240334[4].

5. Mamatkulova I.E. "*Elwendia Boiss* turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rganish".Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года[5].

6. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov “Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan ridge, Uzbekistan” biodiversitas ISSN: 1412-033x Volume 24, number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722 pages: 1621-1628[6].

7. O'ralov A.I., Mamatkulova I.E. “Soyabonguldoshlar oilasi ayrim vakillarining ahamiyati (*Elwendia Boiss*. turkumi)” XXI asrda biologiyaning rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarni ahamiyati respublika ilmiy anjumani, 2021 yil, 15-aprel. Jizzax. B. 268-269[7].

8. Mamatkulova I.E. “O'zbekistonda Apiaeye oilasiga mansub istiqbolli dorivor va ziravor o'simliklarni etishtirish texnologiyasi” Zamonaviy biologik ta'limni rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2022 yil 8 aprel. Jizzax.B. 86-90[8].